

## SUD`YALARINI IJTIMOIY XIMOYA QILISH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH TARTIB TAOMILI

*Sud`yalar Oliy maktabi tinglovchisi*

*Xayitova Shaxnoza Xasanovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qonunchilikda odil sudlov tizimini joriy qilish va ularni qator vazifalarini belgilash va har bir vazifa uchun belgilangan yo'nalishlar bo'yicha tamoillar ishlab chiqish haqidagi ma'lumotlar prezdent qarori misolida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sud-huquq islohotlari, odil sudlov, qonun islohotlari, konstitutsiya, xalqaro standartlar..

So'nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari sud hokimiysi mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga "Yangi O'zbekiston – yangi sud" tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni joriy etishni talab etmoqda. 2023 – 2026 yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasini tasdiqlash bo'yicha prezidentimiz qarori ishlab chiqildi va uni takomillashtirish ustida qator vazifalar belgilab olindi.

Strategiya doirasida quyidagilar odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari etib belgilandi:

- "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakamadolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish;

- adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sud`yalar siyosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish;

- fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish;

- sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;

- sud`yalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga humatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish;

- sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish;

- sud`yalar va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda suddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg'otish.

Bu tamoillarga muofiq odil sudlovni amalga oshirish va sud islohotlarini yanada takomillashtirish ishlarini amalga oshirish mumkin bo'ladi. Qarorga muofiq Sud`yalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida ularning ishiga har qanday aralashuv qat'iy jazolanishi, sud`yalarning xavotirsiz ishlashi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilishi qayd etish haqida alohida bandlar ishlab chiqildi. Sudning mustaqilligi va sud`yalar daxlsizligini ta'minlashni kuchaytirish bo'yicha quyidagi choralar belgilandi:

✓ sudga humatsizlik qilish holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, buning uchun ma'muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish va jinoiy javobgarlik belgilash;

- ✓ sud ishlarini hal etishga aralashganlik va sud hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish, shuningdek, sud hujjatlarining ijro etilishini ta'minlashga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish;
- ✓ odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlikka oid har bir jinoyat ishi yakuni bo'yicha jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali majburiy ravishda xabardor qilish tartibini joriy etish;
- ✓ sud`yaga nisbatan turar joy daxlsizligiga, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar va boshqa so'zlashuvlar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, kur`erlik jo'natmalari va telegraf xabarlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqlarni cheklovchi, shuningdek, abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risidagi axborotni olishdan iborat tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazilishiga faqat Bosh prokuorning sanktsiyasi asosida yo'l qo'yilishini belgilash;
- ✓ jismoniy va yuridik shaxslarning protsessual xarakterga ega bo'limgan, huquqiy tushuntirish berish borasidagi masalalar bo'yicha murojaatlarini adliya organlari tomonidan ko'rib chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish.

1. Одил судловга эришиш имкониятларини янада кенгайтириш ва судлар фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида ПК 2022-Тошкент
2. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.
3. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.
4. Шаропов, Б. X., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.

5. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10(2)*, 14.
6. Xakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation, 1(C7)*, 223-226.
7. Yuldashev, S., & Xakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. *Science and innovation, 1(A5)*, 376-379
8. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research, 1(2)*, 30-36.
9. Хакимов, С., Шаропов, Б., & Абдуназаров, А. (2022). БИНО ВА ИНШООТЛАРНИНГ СЕЙСМИК МУСТАҲКАМЛИГИ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР (РОССИЯ, ЯПОНИЯ, ХИТОЙ, АҚШ) МЕЪЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 806-809.
10. Rasuljon o'g'li, K. S., & Muhammadjanova, K. F. (2023). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING STEEL REINFORCEMENTS AND COMPOSITE REINFORCEMENTS IN BUILDING STRUCTURES. *AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR, 2(6)*, 1-5.